

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARGA TA'LIMIY FAOLIYATNI O'YINLAR ASOSIDA OLIB BORISH

*Qashqadaryo viloyati Shahrисабз tuman 19-DMTT tarbiyachisi
Ibrohimova Maftuna Isomiddin qizi*

Annatsiya: ushbu maqolada maqolada ta'limi o'yinlar orqali chet tillarini mukammal o'qitish haqida aytib o'tilgan.

Аннация: в этой статье речь идет об идеальном обучении иностранным языкам посредством развивающих игр.

Kalit so'zlar: tarbiyalanuvchi, chet tillari, pedagog, maktabgacha ta'lim, ta'limi o'yinlar, mashg'ulotlar, ota-onsa.

Ключевые слова: ученик, иностранные языки, педагог, дошкольное образование, развивающие игры, деятельность, родители.

Maktabgacha ta'lim bosqichi bolalarning psixologik, ijtimoiy va aqliy jihatdan shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Shu bois ta'limi faoliyat bu yoshda majburiy emas, balki qiziqarli va zavqli shaklda tashkil etilishi zarur. Eng samarali va tabiiy usul esa — o'yinlar asosida ta'lim berishdir. O'yin orqali bola atrof-muhitni o'rghanadi, muloqot qiladi, muammolarni hal etadi va mustaqil fikrlashga o'rghanadi. Bu metod orqali bolalarning e'tibori, nutqi, xotirasi, mantiqiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi.

O'yin faoliyati asosida boladagi bilish faoliyati rivojlanadi, bola qancha yaxshi o'ynasa, maktabda shuncha yaxshi ta'lim oladi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o'rgatishda ham o'yining ahamiyati katta va muhim hisoblanadi. O'yin tarbiyalanuvchining eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi bois, tarbiyalanuvchiga atrof olam va undagi barcha zaruriy bilim va ko'nikmalar o'yin vositasida tanishtirib borilsa, ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. Shu sababli ota — ona va tarbiyachi murabbiylar tarbiyalanuvchilarga imkon qadar ko'proq o'yin orqali o'rghanishni targ'ib qilishlari kerak. Aynan o'yin orqali tarbiyalanuvchilar ta'lim oladilar o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'limi o'yinlar musiqa asboblarnini chalish, qo'shiqlar kuylash, she'r aytish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish, qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi. Rangli ko'rgazmalar, kartalar, musobaqalar, rol o'yinlar, turli shakllar yasash kabi o'yinlar tarbiyalanuvchilarni jismoniy va aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi eng qiziqarli usullardan biridir.

O'yin turlarining ta'lidiagi ahamiyati

- **Didaktik o‘yinlar** – bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan;
- **Ijodiy o‘yinlar** – bolalarning tasavvuri, dramatik ifoda va rolli ishtirokini rivojlantiradi;
- **Harakatli o‘yinlar** – jismoniy rivojlanishni, muvofiqlashtirish va reflekslarni kuchaytiradi;
- **Stol-ustida o‘ynaladigan o‘yinlar** – tafakkur, xotira va diqqatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonda o‘yining tutgan o‘rni. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarda o‘yining tutgan o‘rni alohida bo‘lib, o‘yindan tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash va ularga ta‘lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- O‘yin tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda tarbiyalanuvchining ruhiyati namoyon bo‘ladi;
- O‘yin maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar hayotini tashkil etish shaklidir;
- O‘yin tarbiyalanuvchilarni hart tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- O‘yin tarbiyalanuvchilarga ta‘lim tarbiya berishning metod va usulidir; Tarbiyalanuvchilar o‘yini o‘zining mazmuni, hususiyati va tashkiliy qismiga egadir.



O‘yin jarayonida tarbiyalanuvchining jismoniy jihatdan o‘sishi uchun muvofiq sharoit yaratish nihoyatda muhimdir. Bunga erishmoq uchun o‘yinlarning tarbiyalanuvchilarga yetarli suratda zavq tug‘dirishini, ularda faollik hosil bo‘lishini, bu o‘yinlar turli hil harakatlarni o‘z ichiga olishni, serharakat o‘yinlar ketidan kam harakatli o‘yinlarga o‘tilishini ta‘minlash zarur.

Ma’lumki, tarbiyalanuvchilarning o‘yinlari asosan kattalarning ish-harakatlariga, hayotiy urf-odatlariga mahsus ravishda taqlid qilishdan iborat. Tarbiyalanuvchining o‘yin faoliyatini uning boshqa shakldagi faoliyatlaridan ajratish mezoni shundan iboratki, o‘yinda u hayotiy vaziyatni yaratadi. Tarbiyalanuvchilarning bir – birlaridan farqli jihatlari hayoliy tafakkuri hamda ma’naviy yetuklik darajasi bo‘yicha egallshi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining minimal hajmi metodik tavsiya sifatida ishlab chiqilgan.

Dasturda davlat talablari ko‘rsatkichlariga erishish “Uchinchi ming yillikning tarbiyalanuvchisi” tayanch dasturi asosida tarbiyalanuvchilarning ilk yoshdan boshlab 6-7 yoshga yetgunga qadar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘ylgan minimal talablarni amaliyotda qo‘llash va metodik tavsiyada quyidagilar 5-6 yoshdagi tarbiyalanuvchilarning ona tilidagi nutqi va tafakkurining rivojlanish darajasiga qo‘yladigan minimal talablar sifatida belgilangan:

- ⊕ Tovush va so‘zlarni aniq va to‘g’ri talaffuz qilish;
- ⊕ 30000 dan ortiq so‘zni tushunish va bilish;
- ⊕ rasmga qarab gap tuzish;
- ⊕ ertak va hikoyani tinglash va mazmunini tushunish;
- ⊕ tinglagan kichik hajmli ertak va hikoyani qayta so‘zlab berish;
- ⊕ ifodali nutqqa ega bo‘lish;
- ⊕ tabiat manzarasi, tevarak-atrof haqida qisqacha so‘zlab berish;
- ⊕ turli mavzudagi, kichik hajmli she’rlardan 5-6 tasini yoddan aytib berish;
- ⊕ o‘z fikrini mustaqil, erkin bayon eta olish va xulosa chiqara bilish;
- ⊕ mantiqiy fikrlash malakalariga ega bo‘lish;
- ⊕ tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, umumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash, qiyoslash va boshqalar) ni yoshiga mos ravishda rivojlantirish;
- ⊕ fikriy mulohaza yuritish;
- ⊕ tevarak – atrofni to‘g’ri idrok etish;
- ⊕ ta’limiy o‘yinlar vositasida tafakkurni peshlash;

Har narsaga qiziqish kuchli bo‘lgani tufayli tarbiyalanuvchilarda hayron qolish, ajablanish, shubhalanish, ishonch hosil qilish kabi intellektual hissiyotlar ham yuzaga kela boshlaydi. Ingliz tili o‘rgatishda ham tarbiyalanuvchining o‘yinga bo‘lgan ehtiyojini inobatga olgan holda yondoshiladi. Bu kabi hissiyotlar tarbiyalanuvchi tafakkurining o‘sishida juda katta ahamiyatga ega. Demak, ongga nafaqat nutq orqali, balki sensor tuyg’ularni rivojlantirish, yani, ko‘rib, eshitib, ushlab, hidlab, ta’mini tatib ko‘rish va imo-ishoralar yordamida ham kirish mumkin. Aynan maktabgacha yoshdagি tarbiyalanuvchilarda bu kabi sezgi a’zolari yaxshi rivojlangan bo‘ladi va tarbiyalanuvchi muntazam barcha analizatorlar yordamida nutqni egallay boshlaydi hamda xorijiy til da so‘zlashish ko‘nikmasiga asta- sekinlik bilan kirib boradi.

Nutqni tushunish, idrok qilnayotgan so‘zlarni farqlash, so‘zlar bilan tanishishdan boshlanadi. Sh. Sodiqovaning ta’kidicha, mazkur jarayon mexanizmlari negizida bosh miya qobig’i ishlab chiqaradigan nerv tugunlari, ular yordamida har turli nutq signallarining idrok qilinishi yotadi. Inson miyasi ma’lumotni idrok qilar ekan, bir yo‘la diqqatni ishga tushiradi, axborotni xotirasiga joylashtiradi, tafakkurni jalb etadi, tasavvurni faollashtiradi.

Demak, nutq faoliyatiga insondagi barcha ruhiy jarayonlar, sezgi, idrok, diqqat, tasavvur, ijod ta’sir etadi. Insonni ma’lum yo‘nalishda yoki bu harakatlarni bajarishga undovchi va qo‘yilgan maqsadlarga yetishuviga ko‘maklshuvchi ongli va ongsiz psixik jarayonlar negizida o‘rganishning kuchli impulsi motivatsiya hisoblanadi. Tarbiyalanuvchilarga xorijiy til o‘rgatishda muhim omil hisoblanadigan motivatsiya ularning jarayonga tez kirishishlarida juda katta ko‘makchidir. Aynan motivatsiya orqali pedagog tarbiyalanuvchilarda xorijiy til o‘rganishga qiziqishlarini uyg’ota oladi. Bu jarayonda o‘yin faoliyati ham qaysidir ma’noda ular uchun motivatsiya bo‘la oladi.

Xulosa shuki: Maktabgacha yoshdagicha bolalarga ta'lim berishda o'yin asosidagi yondashuv eng maqbul va tabiiy metod hisoblanadi. Chunki o'yin bola hayotining ajralmas qismi bo'lib, ta'lim mazmunini o'yin bilan uyg'unlashtirish orqali bola nafaqat bilim oladi, balki uni real hayotda qo'llashni o'rghanadi. **Tarbiyachining vazifasi** — ta'limiy maqsadlarni bolaning o'yin ehtiyoji bilan birlashtira oladigan didaktik metodlarni to'g'ri tanlash va amaliyotga tadbiq eta olishidir. Shunday yondashuv orqali biz kelajak avlodni mustaqil fikrlovchi, faol va bilimdon etib tarbiyalay olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. Baxramova M. D. Tuzuvchi: Baxramova M. D., — T.2016.
2. <https://raisingchildren.net.au/newborns/play-learning/play-ideas/why-play-is-important> internet resurs
3. <https://www.britishcouncil.org/voices-magazine/how-young-children-learn-english-through-play> internet resurs
<https://www.parents.com/baby/development/intellectual/how-to-teach-your-child-a-foreign-language/> internet resurs
4. N. Kamolova spanish international scientific online conference prospects and main trands in modern science "o'yin bola ta'lim-tarbiyasining muhim vositasi"
5. Language learning Strategies and Second language Use in academic Context.Universtate Jaume 1. Algeo, J (2010) 6th ed. Origin and Development of English Language. Wordsworth Anderson, T. (1960:303). ". In Madrid, D (2001): "A conceptual Framework for the teaching of foreign languages in infant education". UniversityGranada.Pg 145–155.